

Shartnoma (kontrakt)

Shartnoma № 37/22



Талимаржон ш.
(shartnoma tuzish joyi)

2022 yil 17 oktabr
(shartnoma tuzish sanasi)

"MAXSUS ELEKTR SOZLASH" MCHJ (bundan buyon - "Bajaruvi" deb ataladi) nomidan harakat qiluvchi direktor **XALMURADOV ATAMURAT BAYRAMKULOVI**CH, bir tomondan, va QARSHI MAGISTRAL KANALIDAN FOYDALANISH BOSHQARMASI (bundan buyon - "Buyurtmachi" deb ataladi) nomidan harakat qiluvchi direktor **KURBANOV ILXAM UZAKOVICH**, ikkinchi tomondan, birgalikda "Tarafflar", alohida esa "Taraf" deb ataluvchilar mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1. Tovar (xizmat)larning to'liq tafsiloti:

Ushbu shartnomaga binoan, Mijoz to'laydi va qabul qiladi va ijrochi quyidagi shartlar asosida tovarlarni (xizmatlarni) yetkazib beradi:

№	Tovar nomi (xizmat)	Tovar (xizmat)lar Yagona elektron milliy katalogi bo'yicha identifikatsiya kodi va nomi	Tovar/xizmat shtrix kodi	O'lchov birligi	Miqdori	Narx	Yetkazish bahosi	QQS		Yetkazish bahosi QQS bilan
								stavka	summa	
1	Turkmaniston davlati hududida joylashgan, Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasi tasarrufidagi 1-6-nasos stansiyalarida, O'zbekiston Respublikasi hududidagi M-nasos stansiyalarida hamda boshqa ob'ektlarida energetik uskunalarda profilaktik sozlash ishlarini amalga oshirish.	11301006001000000 - Электр ускуналари таъмирлаш ва техник хизмат кўрсатиш		xizmat (so'm)	1,00	387 000 000,00	387 000 000,00	15,0000	58 050 000,00	445 050 000,00

Shartnomaning umumiy miqdori To'rt yuz qirq besh million ellik ming so'm 0 tiyin (summa so'zlar bilan).

- 1.1. Mazkur shartnoma bo'yicha "Buyurtmachi" xizmatlarni qabul qilish va to'lash, "Ish Bajaruvi" esa "Buyurtmachi" ning buyurtmasi bo'yicha quyidagi xizmat ko'rsatish majburiyatini oladi:
 1.2. Shartnomaning umumiy summasi 445 050 000 (to'rt yuz qirq besh million ellik ming) so'm 00 tiyin. Shundan QQS 58 050 000 (Ellik sakkiz million ellik ming) so'mni tashkil qiladi.
 1.3. Xizmat ko'rsatishni boshlash va tugatish muddati: Boshlanishi: "17" 10 2022 y. Tugashi: "31" 12 2022 y.

2. To'lov tartibi, majburiyatlarni bajarish shartlari va muddati

- 2.1. "Buyurtmachi" mazkur shartnomani g'aznachilik organlarida ro'yxatga olingan kundan boshlab 10 kalendar kuni ichida qonunchilikka muvofiq shartnoma umumiy summasidan 30% miqdorida oldindan to'lash majburiyatini oladi, qolgan 70% ni ko'rsatilgan xizmatlar to'g'risidagi dalolatnoma imzolanganidan so'ng 90 kalendar kuni ichida qabul qilish dalolatnomasi, hisob-faktura v.b. asosida to'laydi.
 2.2. Xizmat ko'rsatish yakunlangandan keyin "Xizmat ko'rsatuvchi", "Buyurtmachiga" bajarilgan ishlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasini taqdim etadi.
 2.3. "Buyurtmachi" dalolatnoma va unga ilova qilingan boshqa hujjatlarni olgandan keyin 5 bank ish kuni ichida imzolangan dalolatnomani yoki xizmatlarni qabul qilishni asosli ravishda rad qilish xatini "Xizmat ko'rsatuvchiga"ga yuboradi.
 2.4. Rad qilingan holatda, ko'rsatilgan xizmatlarni qabul qilishni asosli ravishda rad qilinishi yuzasidan kamchiliklarni bartaraf etish ro'yxati va muddati bo'yicha tomonlar o'rtasida dalolatnoma tuziladi.

3. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

- 3.1. Mazkur shartnoma belgilangan tartibda amaldagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va shartnoma talablari va shartlariga muvofiq ijro etilishi shart.
 3.2. Shartnomaning shartlarini bajarishni bir tomonlama rad qilish yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama tartibda o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligida o'rnatilgan hollar bundan mustasno.
 3.3. Tomonlar o'z zimmlariga olgan barcha majburiyatlarning ijrosini ta'minlagan taqdirda shartnoma bajarilgan hisoblanadi.
 3.4. Buyurtmachining roziligi bilan xizmatlar muddatidan avval ko'rsatilishi mumkin.
 3.5. Ko'rsatilgan xizmatlar bevosita Buyurtmachining mas'ul xodimlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar miqdori va ularning sifati ko'rsatiladigan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi.

4. Tomonlarning javobgarligi

- 4.1. Buyurtmachi:
 - shartnoma O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq;
 - xizmat ko'rsatuvchi bilan shartnoma tuzish yoki xizmat ko'rsatuvchi bilan shartnoma tuzishni rad etish muddatiga rioya etilishi (ajratilgan byudjet mablag'lari kamayishi holatlari bundan mustasno);
 4.2. Ko'rsatilgan xizmatlarni tanlab olmaslik, shuningdek xizmat ko'rsatuvchi shartnomada belgilangan muddatda (davrda) ularni xizmatlari ko'rsatganda, xizmatlari qabul qilib olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun buyurtmachi xizmat ko'rsatuvchiga qabul qilib olinmagan (o'z muddatida qabul qilib olinmagan) xizmatlar qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi. Qabul qilib olinmagan (olish asossiz rad etilgan) hollarda, xizmat ko'rsatuvchi jarima undirishdan tashqari, ushbu ishlar bajarilganligining kafolatlarini taqdim etgan holda, qabul qilib olinmagan (o'z muddatida qabul qilib olinmagan) xizmatlar qiymati to'lanishini talab qilishga haqlidir.
 4.3. To'lov talabnomasi akseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarida xizmatlar haqini to'lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to'lov topshiriqnomasini taqdim etmaganlik, chek bermaganlik, akkreditivni taqdim etmaganlik va hokazo) uchun buyurtmachi xizmat ko'rsatuvchiga o'zi to'lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.
 Bajarilgan xizmatlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun buyurtmachi xizmat ko'rsatuvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.
 4.4. Ish Bajaruvi:
 - miqdor, sifat, texnik parametrlar, shuningdek taklif etilayotgan xizmatlarni ko'rsatish muddatlari va joyi bo'yicha yetkazib beruvchi buyurtmanomalar shartlarining buyurtmachi buyurtmanomalarida nazarda tutilgan shartlarga muvofiq;
 - tuzilgan shartnoma shartlarining bajarilmaganligi uchun javob beradi.
 4.5. Agar ko'rsatilgan xizmatlar standartlar, sifati, texnik shartlar, qonun hujjatlarida yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, buyurtmachi xizmatlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, xizmat ko'rsatuvchidan sifati lozim darajada bo'lmagan xizmatlar qiymatining 10 foizi miqdorida jarima undirib olishga, xizmatlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati lozim darajada bo'lmagan xizmatlar ko'rsatganligi uchun jarima xizmat ko'rsatuvchidan akseptsiz tartibda undirib olinadi.

4.6. Xizmatlarni ko'rsatish muddati o'tkazib yuborilgan yoki ko'rsatilmagan hollarda Xizmat ko'rsatuvchi Buyurtmachiga har bir o'tkazib yuborilgan kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq penyalarning umumiy summasi ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshiga yo'l qo'yilmaydi. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni shartnomani tegishli tarzda bajarish va xizmatlar ko'rsatish muddatini o'tkazib yuborilishi yoki ko'rsatilmagligi natijasida yetkazilgan zararlarni qoplab berish majburiyatidan ozod qilmaydi.

5. Nizolarni bartaraf qilish tartibi

- 5.1. Kelishmovchiliklar va bahslar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.
- 5.2. Tomonlar kelishmovchilik va bahslarni hal etish uchun bevosita xo'jalik sudiga murojaat qilishga haqlidir.
- 5.3. Tomonlar iqtisodiy sudiga murojaat qilgan taqdirda, sud ishi da'vogar joylashgan manzildagi xo'jalik sudida ko'rib chiqiladi.

6. Shartnomani o'zgartirish va tugatish tartibi

- 6.1. Mazkur shartnoma g'aznachilik bo'linmalarida majburiy ro'yxatga olingan vaqtdan kuchga kiradi va 2022 y. "31" dekabrighacha amal qiladi.
- 6.2. Shartnomaning amal qilishi bir tomonning tashabbusiga ko'ra 1 (bir) oy davomida boshqa tomonga yozma ariza topshirgan kundan boshlab, barcha o'zaro hisob-kitoblar tugaganligi muddatidan avval to'xtatilishi mumkin. Tomonlar o'z zimmlariga olgan barcha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlagan hollarda shartnoma bajarilgan hisoblanadi.
- 6.3. Shartnomaning amal qilish muddatini tugashi tomonlarni javobgarlikdan ozod qilmaydi.

7. FORS-MAJOR

- 7.1. Ushbu shartnomaga asosan majburiyatlarni bajarilmasligi holatlari yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlar natijasida vujudga kelganda tomonlar o'z majburiyatlarini bajarmaslikdan qisman yoki to'liq ozod bo'ladilar.
- 7.2. Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlariga tomonlarning irodasi va faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda tomonlarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlar kiradi.
- 7.3. Shartnoma tomonlaridan qaysi biri uchun majburiyatlarni yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari sababli bajarmaslik ma'lum bo'lsa, darhol ikkinchi tomonga bu haqda 10 kun ichida ushbu holatlar harakati sababini dalillar bilan taqdim etishi lozim.
- 7.4. Shartnomaga asosan majburiyatlarni iro qilish muddati ushbu yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlar davom etish muddatiga qadar uzaytiriladi. Agar yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) ta'siri 60 kundan ortiqroq davom qilsa, tomonlar tashabbusiga binoan shartnoma bekor qilinishi mumkin.

8. Boshqa shartlar

- 8.1. Ushbu shartnomada tomonlarning ko'zda tutilmagan o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinadi.

9. TOMONLARNI YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

IJROCHI

Nomi: "MAXSUS ELEKTR SOZLASH" MCHJ
 Manzili: shahri Mustaqillik ko'chasi
 Tel.: 94-525-76-00
 Faks:
 STIR: 201285945
 OKED: 42220
 H/R: 20208000600394544001
 Bank: КАРШИ Ш., "ТУРОНБАНК" АТ БАНКИНИНГ КАРШИ ФИЛИАЛИ
 MFO: 00192

N:2005048540 17.10.2022 09:29:56
YUBORILGAN
 ДЖУРАЕВ УЛУГ СЕК МИРЗАЛИЕВИЧ
 operator: soliqservis.uz

BUYURTMACHI

Nomi: QARSHI MAGISTRAL KANALIDAN FOYDALANISH BOSHQARMASI
 Manzili: TALIMARJON SHAHRI
 Tel.: 755126709
 Faks:
 STIR: 201284923
 OKED: 70220
 H/R: 100021860102357042402170001
 Bank: ТОШКЕНТ Ш., МАРКАЗИЙ БАНКНИНГ ТОШКЕНТ ШАХАР ХИСОБ-КИТОБ
 КАССА МАРКАЗИ
 MFO: 00014

N:2008412912 17.10.2022 13:33:28
TASDIQLANGAN
 KURBANOV ILKAM UZAKOVICH

**Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasi
tanlov komissiyasining
BAYONNOMASI**

« 17 » oktyabr 2022 yil

Talimarjon sh.

1.	Polvonov Safo Mahmaraimovich	-	Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari, komissiya raisi
2.	Aliyev Sherzod Jumayevich		Kapital qurilish ishlarini tashkil etish va Dekloratsiya hamda Investitsiya loyihalari bo'limi boshlig'i, komissiya kotibi
3.	Sherqulov Abdirashid Marqayevich	-	Bosh hisobchi, komissiya a'zosi
4.	Esankulov Xayit Shodiyevich	-	ICHT va TIMB boshlig'i, komissiya a'zosi
5.	Mingboyev Yokub Kodirovich	-	Nasos stansiyalarini ekspluatatsiya qilish mexanik uskunalarni ta'mirlash bo'limi boshlig'i, komissiya a'zosi
6.	Adirov Yoqub Usmonovich	-	Muxandis, komissiya a'zosi

KUN TARTIBIDA:

Respublika tovar-xom ashyo birjasi (<https://etender.uzex.uz/>) ning elektron portalida eng yaxshi taklifni tanlash bo'yicha 2022-yil 05 oktyabrdagi № 22110012159654-sonli lot raqami bilan e'lon qilingan, Turkmaniston davlati hududida joylashgan, Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasi tasarrufidagi 1-6-nasos stansiyalarida, O'zbekiston Respublikasi hududidagi M-nasos stansiyalarida hamda boshqa ob'yektlarida energetik uskunalarda profilaktik sozlash ishlarini amalga oshirish ishlari bo'yicha.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari, komissiya raisi S.Polvonov so'zga chiqib, tanlov natijalari bo'yicha eng yaxshi taklifni tanlash bo'yicha 2022-yil 05 oktyabrdagi № 22110012159654-sonli lot raqami bilan e'longa qo'yilganligini va tanlov loti bo'yicha xarid komissiyasi 12.10.2022 yildagi Xarid qilish bo'yicha tender bo'yicha xarid komissiyasining bayonnomasi Lot № 159654 g'olibni aniqladi:

- "MAXSUS ELEKTR SOZLASH" MChJ
va zaxira pudratchi:
- "ISHLAB CHIQRISHNI TEXNOLOGIK JIXOZLASH BOSHQARMASI" MChJ

12.10.2022 yildagi Xarid qilish bo'yicha tender bo'yicha xarid komissiyasining Lot №159654-sonli bayonnomasi 2 ish kun muxokamaga qo'yildi. Ushbu 2 ish kuni muxokama davrida hech qanday ishtirokchi tashkilotlar tomonidan e'tirozlar bo'lmaganligi sababli tanlov komissiyasi

QAROR QILADI:

1. 2022 yil 12 oktyabrdagi Lot №159654-sonli bayonnomasi orqali "MAXSUS ELEKTR SOZLASH" MChJ g'olib deb topilsin.

2. Turkmaniston davlati hududida joylashgan, Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasi tasarrufidagi 1-6-nasos stansiyalarida, O'zbekiston Respublikasi hududidagi M-nasos stansiyalarida hamda boshqa ob'yektlarida energetik uskunalarda profilaktik sozlash ishlarini amalga oshirish ishlari bo'yicha "MAXSUS ELEKTR SOZLASH" MChJ bilan shartnoma tuzilsin.

Komissiya a'zolari:

S.Polvonov
Sh.Aliyev
A.Sherqulov
X.Esankulov
Y.Mingboyev
Y.Adirov


